

FUQAROLIK JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Xakimov Feruz Xayotovich

Toshkent viloyati Chirchik davlat pedagogika instituti talabasi

Ilmiy raxbar: **Eshmatboy Kalkanov,**

TVCHDPI o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatni tushunchasi, uning huquqiy asoslari, jamoat birlashmalari, huquq hamda fuqarolik va oila huquqi tushunchalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari, fuqarolik institutlari va ularning davlat bilan o'zaro hamkorlik prinsiplari to'g'risida mulohaza yuritgan.

Kalit so'zlar: huquq, oila huquqi, fuqorolik huquqi, jamoat birlashmasi, fuqarolik inistitutlari, fuqorolik jamiyat, konstitutsiya.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотация: В данной статье анализируются понятие гражданского общества, его правовая основа, общественные объединения, право и понятия гражданского и семейного права. Также в статье рассматриваются правовые основы гражданского общества, институты гражданского общества и принципы их взаимодействия с государством.

Ключевые слова: Гражданское общество, право, семейное право, гражданское право, общественное объединение, гражданские институты, конституция.

Fuqarolik jamiyatni sharoitida inson huquq va erkinliklarining amal qilishi kafolatlanadi, qonunning ustuvorligi ta'minlanadi, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy jihatdan faol bo'lishadi, fuqarolik jamiyatni institutlari, shu jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari faol va samarali ish olib boradi. Bugungi kunda respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar O'zbekistonda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga, uning iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda[1].

Fuqarolik jamiyatni tushunchasi – kishilik jamiyatining asrlar mobaynida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lib inson huquqlari va erkinliklarining holati bilan belgilanadi. Fuqarolik jamiyatining poydevorini yaratish va uni amalda shakllantirish uchun avvalo u haqdagi g'oyalar genezisini, asoslarini bilish lozim. Fuqarolik jamiyatni ma'lum asoslar (iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, ma'naviy) yaratilgandagina shakllanishi mumkin. Bular bo'yicha Sharifxo'jaev M., Qirg'izboev M., Jalilov A., O'tamurodova A. va boshqalar[2] o'z asarlarida bu masalani tadqiq etishgan. Maqolada tizimlilik tamoyillariga asoslangan xolda, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.

Fuqarolik jamiyatni "mazkur mamlakatning har bir fuqarosiga iqtisodiy va siyosiy turmishini o'z ixtiyori asosida qurishga to'la erkinlikni kafolatlovchi ma'lum ijtimoiy tizimdir"[3].

Fuqarolik jamiyatni huquqiy davlatda barpo etiladi. Huquqiy davlatda fuqarolik jamiyatni taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladigan normalar yaratiladi va mustahkamlanadi. Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslari deganda fuqarolik jamiyatni institutlarining maqomi, tashkiliy-huquqiy shakliga oid normalar majmui tushuniladi.

Fuqarolik jamiyatining huquqiy asoslariga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, shuningdek fuqarolik jamiyatni institutlari faoliyatini belgilovchi qonunlar, ushbu qonunlar

ijrosini ta'minlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, farmonlari va farmoyishlari kiradi[4].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatining asoslari hisoblangan jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslari belgilab berilgan. Ushbu konstitutsiyaviy normalar orqali fuqarolik jamiyatni institutlarining tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat yo'nalishi, maqsadi va vazifalarini belgilab beradigan qonunlar qabul qilingan. Ushbu qonunlar ijrosini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi-demokratik jamiyat qurishning huquqiy poydevori hisoblanadi. Aynan fuqarolik jamiyatining dastlabki huquqiy asoslari, fuqarolik jamiyatni institutlarining huquqiy ta'rifi va tushunchasi ham Konstitutsiyamizda belgilab berilgan.

Konstitutsiya oltita bo'limdan iborat bo'lib, uning uchinchi bo'limi – "Jamiyat va shaxs" deb nomlangan, ushu bo'limdagi "Jamiyatning iqtisodiy negizlari" bobida mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining iqtisodiy asoslaridan biri hisoblangan xususiy mulk va uning muhofazasi, erkin tadbirdorlik faoliyatining kafolatlanishiga oid normalar o'z aksini topgan. "Jamoat birlashmalari" bobida O'zbekiston jamoat birlashmalari faoliyatini tashkil etilishi, huquq maqomi, jamoat birlashmalari faoliyatining huquqiy kafolatlari, siyosiy partiyalarning huquqiy maqomi va faoliyat yo'nalishi, diniy tashkilotlar va birlashmalarning faoliyati yoritilgan.

Konstitutsiyadagi "Oila" deb nomlangan bobida oilaning jamiyat hayotidagi mavqeい, ota-onalar, farzandlarning oilada majburiyatlar, oilani davlat tomonidan muhofaza qilinishi huquqiy jihatdan yoritilgan, "Ommaviy axborot vositalari" bobida mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatiga huquqiy ta'rif berilgan. Shu tariqa, fuqarolik jamiyatni institutlarining huquqiy poydevori Konstitutsiyaviy-huquqiy normalar orqali mustahkamlangan.

Huquq bu davlat tomonidan belgilangan yoki tastiklangan umumiyyat majburiy ijtimoiy normalar tizimidir. U fuqorolarning davlat tomonidan mustaxkamlaydigan, kafolatlanadigan va muxofaza kilinadigan asosiy huquqlarni o'z ichiga olidi[5]. Fukarolik xukuki normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ushu munosabatlarda muayyan shaxslarning ish tirok etishi natijasida vujudga keladi. Ammo ushu munosa batlar shaxsan kimlar urtasida vujudga kelishi anik bulmas-dan turib, munosabatlar mazmunini tashkil kiluvchi xukuk va majburiyatlarni amalga osh irib bulmaydi. Fukarolik xukuki normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar ushu munosabatlarda muayyan shaxslarning ish tirok etishi natijasida vujudga keladi. Ammo ushu munosa batlar shaxsan kimlar urtasida vujudga kelishi anik bulmas-dan turib, munosabatlar mazmunini tashkil kiluvchi xukuk va majburiyatlarni amalga oshirib bulmaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida fuqarolik jamiyatiga ta'rif berilmagan bo'lsada, unda fuqarolik institutlarini tashkil etish va ular faoliyatining huquqiy asoslari e'tirof etilgan, ularning davlat bilan o'zaro hamkorligi prinsiplari belgilangan.

Konstitutsiyada quyidagilar o'rnatilgan:

- jamoat birlashmalari (kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, fuqarolarning boshqa turdag'i birlashmalari) qonunda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi lozim;
- konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga tajovuz qiluvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning,

milliy va diniy alomatlar bo'yicha siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi;

- jamoat birlashmalar ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlarga ega, davlat jamoat birlashmalarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi;

- davlat organlari va mansabdar shaxslar jamoat birlashmalar faoliyatiga aralashmaydilar, shuningdek, jamoat birlashmalar davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyatiga aralashmaydilar;

- siyosiy partiylar o'z faoliyatlarini moliyaviy ta'minlaydigan manbalar haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga oshkor hisobotlar berib turadilar;

- davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi;

- jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi;

- ommaviy axborot vositalari erkendir va qonunga muvofiq ishlaydi, senzuraga yo'l qo'yilmaydi;

- o'zini o'zi boshqarish organlarini saylash tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish hamda vakolat doirasi qonun bilan tartibga solinadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, jamoat birlashmalar, kasaba uyushmalari, siyosiy partiylar, siyosiy partiyalarni moliyalashtirish, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat fondlari, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar, saylovlar to'g'risidagi bir qator qonunlar yurtimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muayyan huquqiy asoslari yaratilganidan yaqqol dalolat berib turibdi.

Ayni paytda davlatimiz rahbari tomonidan qo'yilgan vazifalarga binoan mamlakatimiz parlamenti yangi qonunlar ishlab chiqmoqda, amaldagi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Haydarov O. Fuqarolik jamiyati. – Samarqand: 2019. –B.4.
2. Sharifxo'jaev M. O'zbekistonda ochiq fuqarolik jamiyatining shakllanishi. – T.: Sharq, 2003.
3. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: genezisi, shakllanishi va rivojlanishi. – T.: O'zbekiston, 2010.
4. Jalilov A. Fuqarolik jamiyati asoslari. – T.: Baktria press, 2015.
5. O'tamurodov A. Fuqarolik jamiyati fanidan tushuncha va atamalar lugati. T.: Turon-zamin-ziyo. 2017.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2019.
7. Karimov D. (2022) O'zbekiston Respublikasida yoshlar tarbiyasida diniy-axloqiy bilimlarning o'rni / Interdisciplinary research: scientific horizons and perspectives III International Scientific and Theoretical Conference, -p. 80-81.
8. Kandov B.M. (2022). The Role of Religious and Moral Values in Strengthening the Spiritual Development of Society and Individuals // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 88-92.
9. Umid Adambayev. (2021). Milliy o'zlikni anglash millat taraqiyotining poydevori // Scientific progress. – pp. 1858-1862.
10. Кандов Б.М. (2022) Роль этнокультуры в воспитании молодежи Узбекистана в духе национальной идеологии. Conference Zone. – pp. 77-80.

11. Kandov Bakhodir Mirzayevich (2022). Socio-legal foundations for the development of a civic position among the youth of a renewed Uzbekistan. International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – pp. 185-188.
12. Umidbek Adambayev. (2021) Faith – the conception of belief and steps to develop it / Actual problems of modern science, education and training. – p. 96.
13. Kandov B. (2022) Current Issues of Harmony of Human and National Values In the Formation of Civil Station of the Youth of New Uzbekistan. Journal of Ethics and Diversity in International Communication 1 (8), 30-33.
14. Адамбаев Умидбек. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда урф-одат ва анъаналарнинг таъсири / Scientific progress. – pp. 348-351.
15. Kandov B.M. Ikramov R.A. (2022) The Role of Ecological Values in the Private Perspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). – pp. 68-73.
16. Умидбек Хайтбаевич Адамбаев. (2022) Экологик маданият ва уни шакллантириш // Academic research in educational sciences. – pp. 125-134.
17. Umidbek Xaitbayevich Adambayev. (2022) Navro'z bayrami va uning etnomadaniy ahamiyati. Academic research in educational sciences. – pp. 175-177.
18. Умидбек Адамбаев. (2022) Ишонч-эътиқодни шакллантиришда аргументлашнинг ўрни // Academic research in educational sciences. – p. 898.
19. Баҳодир Мирзаевич Қандов. (2021) The importance of forming an active civic position among young people. Актуальные научные исследования в современном мире. – С. 102-106.
20. Қандов Б.М. (2021). Philosophical and Legal Problems of Women's Rights And Freedoms in the Process of Globalization // Актуальные научные исследования в современном мире. – pp. 65-70.
21. Bakhodir Qandov. (2020) Human Rights are a Social Phenomenon: The Principles of Globalization and Personal Liberty. – P. 488-495.
22. Kandov B.M. (2021). Problems of Global Ecology and Socio-Natural Environment // International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences. – pp. 182-186.
23. Ikramov R. Kandov B.M. (2021). The Role of Education and Upbringing in the Formation of a Harmonious Personality in the Process of Globalization // Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – pp. 33-37.
24. Togayev Shavkat Hurramovich. Kandov Bakhodir Mirzayevich. (2021) The role of education in the development of environmental consciousness of a person. ISJ Theoretical & Applied Science, 1129-1133.
25. Bakhodir Qandov, Hamza Juraev. (2020) Creation of a New System of Education and Education in the Bukhara People's Republic // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – pp. 496-501.
26. Ikramov Ravshan Aktamovich, Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. (2020) Historical and Theoretical Roots of Establishing a Democratic Law in Uzbekistan. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – pp.507-510.
27. Ismayilov Akmal Ziyadillaevich. Factors in the Development of Civil Society Institutions in the New Uzbekistan // International Journal of Development and Public Policy Vol. 2 No. 3 (2022). – pp. 84-91.
28. Adambaev U. (2021). Confidence-nonverbal methods of argumentation in the formation of the verb // Экономика и социум. – С.18-21.
29. Sultanov Og'abek. The essence of the obligation in the views of eastern thinkers. Academicia Globe: Inderscience Research. –p. 39-42.